

## “TEMURIYLAR KUTUBXONASINING SIRI” VA “DA VINCHI SIRI” DETEKTIV ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Mohlarbegim Baxodirjon qizi Kamolitdinova*

*Farg'ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

*Qosimova Feruzaxon Xursanali qizi*

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o'qituvchisi, PHD*

**Annotatsiya:** Detektiv asarlar paydo bo'lganidan buyon har bir o'qivuvchida katta qiziqish uyg'otib keladi. Garchi o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bu yo'nalishda allaqachon salmoqli namunalar yaratildi. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz adabiyoti detektiv janrining yorqin namunalari bo'lgan Komil Sindarov qalamiga mansub “Temuriylar kutubxonasi siri” va Den Braun tomonidan yozilgan “Da Vinchi siri” asarlarining qiyosiy tahlili, ulardagi o'xshash va farqli jihatlar, shuningdek, ikki asarning o'ziga xos taraflari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** detektiv qissa, izquvar, sirli jumboq tarixiy detektiv qissalar, voqealar rivoji, ingliz adabiyoti.

**Kirish:** So'z avvalida, detektiv janri, uning boshlanish tarixi, yorqin namunalari haqida qisqacha va tushunarliroq to'xtalib o'tsak. Adabiyotning eng ko'p o'qiluvchi janrlaridan biri detektiv janridir. Zamonaviy detektiv asarlar ilk bor ingliz tilida yozilgan adabiyotlarda paydo bo'lgan va ommalashgan. Detektiv asarlar – jinoyat yoki jinoyatlar zanjiri havaskor yoki professional politsiyachi tomonidan ochib berilishi yoritilgan fantastik asarlardir va ularga Amerika Renessans davrining nodir kashfiyoti sifatida qaraladi. Detektiv hikoya shubha, sirli jumboq va jinoyatning yechimidan iborat bo'lishi kerak.[1:1] Bu janrni Edgar Allan Po o'zining “Morg ko'chasidagi qotillik” asari bilan asos solgan. Detektiv adabiyotning mumtoz asarlarida jinoyatning ochilishi mantiqiy asosda tasvirlanadi. Jumladan, Artur Konan Doyl yoki-da Agata Kristi ijodida ko'rishimiz mumkin. Janrning keyingi taraqqiyoti esa unda ijtimoiy-ruhiy motivlarning

paydo bo'lishi, qonun himoyachilarining jinoyatchilar dunyosi bilan bevosita kurashi tasvirlanganligi bilan xarakterlanadi.[2:1] Artur Konan Doyl o'zining Sherlok Xolms va Doktor Watson haqidagi sargushtlari bilan detektiv adabiyotning oltin davrini boshlab berdi va bu janrga nisbatan barchaning qiziqishini oshirib yubordi. Agata Kisti Erkyul Puarosi bilan bu qizg'in jarayonni davom ettirdi va olamshumul shuhrat qozondi.

Detektiv janrning zamonaviy taraqqiyotiga keladigan bo'lsak, bu davrda asarlarlardagi sirli hodisalar-u voqealar rivoji zamonaviy texnologiyalar bilan boyitildi.

O'zbek adabiyoti detektiv janriga to'xtaladigan bo'lsak, jadid adabiyoti yorqin namoyondasi Abdulla Qodiriyning "Shubha" nomli kichik hikoyasida detektiv janrga xos ba'zi xususiyatlarni ko'rish mumkin, ammo uni to'laqonli detektiv asar deb bo'lmaydi.[1:4] O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" qissasi esa o'zbek adabiyotida ilk detektiv asari sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, Tohir Malik tomonidan yozilgan "Shaytanat" roman-tetralogiyasi o'zbek detektiv adabiyotining durdonasi sifatida qaraladi. Ushbu maqolada esa, biz tarix bilan bevosita bog'langan "Temuriylar kutubxonasining siri" va "Da Vinchi siri" detektiv asarlarining qiyosiy tahlilini keltirishga harakat qilamiz.

**Metodologiya:** Biz muhokama uchun tanlagan bu har ikki asar o'ziga xos mavzu, voqealar rivoji, kulminatsiya va yakunga ega. Shu sabab am o'ziga xos bo'lgan yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy dunyo bilan tarixga uzviy bog'lanish nuqtalari esa o'quvchini har bir satrlarida ko'zni uzmay o'qishga undaydi. Asarlarni tahlil qilishda biz adabiyotshunoslikning qiyosiy tahlil usulini tanladik. Bu metod turli va hattoki bir-biriga zida bo'lgan qadriyatga ega jamiyatlar adabiyotidagi nozik o'xshashliklar va ularning g'aroyib xilma-xilliklarini ko'rishda va tahlil etishda juda qo'l keladi.

**Muhokama va natijalar:** "Temuriylar kutubxonasining siri" asari zamonaviy o'zbek adabiyoti namunasi bo'lib, Komil Sindarov tomonidan yozilgan. Asar Hazrati Bashir qishlog'idagi oddiy bir cho'ponning o'ldirilib ketish voqeasi, jinoyatni fosh etishga bel bog'lagan tergovchilarning uddaburonligi, bu jinoyat atrofidagi juda ko'pchilikning o'ralashib qolishi, bir jinoyat ortidan boshqa jinoyat izlarining topilishi kabi voqealar bilan bog'liq. Asar Temuriylar kutubxonasining sirlarini ochib beradi.

"Da Vinchi Siri" asari esa amerikalik yozuvchi Den Broun tomonidan yozilgan. Asar 2003-yilda "Doubleday Group" nashriyoti tomonidan nashr qilingan. Bu asar muallifning avvalgi romani "Farishtalar va shaytonlar"ning davomi edi. Asar xristianlik tarixidagi Muqaddas Graal va Mariya Magdalina hikoyasiga e'tiborni yanada kuchaytirdi. Shuningdek, asar kitobxonni Leonardo da Vinchi asaridagi ramzlar va ularga yashiringan sirlar ortidan san'atkorona ergashtirib ketadi va kutilmagan xulosalar bilan hayratga soladi. O'xshashliklar haqida gapiradigan bo'lsak, har ikki namuna ham asar qahramonlarining sirli o'limi bilan boshlanadi va bu jinoyat hodisa antiqa sarguzashtlar va kutilmagan ham noyob yakun tomon yetaklaydi. Aynan shu natija keyingi o'xshashlik sifatida qaralishi mumkin. Ya'ni izquvarlar va izlanuvchilar yillar davomida jumboq bo'lib kelgan tarixiy sir va xazinani topishadi. O'zbek tilida yozilgan asarda bu xazina Temurning ming yillar avval qadim vohada g'oyib bo'lgan mislsiz tillalari va uning nabirasi Ulug'bekning kutubxonasi topilishi bilan yakunlansa, ingliz adabiyoti namunasida esa Da Vinchi asarlari ortiga yashiringan sirning oshkor etilishi bilan tugallanadi. Har ikki qissada ham ikki izquvar (Faxriddin va Sanjar; professor Robert Lengdon va Kriptograf Sofi)ning jinoyatlarni va sirlarni ochishi asarlardagi keyingi o'xshash jihatdir. Shu o'rinda bevosita keyingi takrorlanuvchi jihatga to'xtalsak, "temuriylar kutubxonasining siri" qissasida Ali Qushchi (Mirzo Ulug'bekning suyuqli shogirdi, tarixiy xarakter) o'z asarlarida yozib ketgan ishoralar bevosita maxfiy kutubxona tomon eltadi:

Do'stim, chaqa olsang so'zim ma'nosin,

Topajaksan durlarning durdonasin.

Firdavsmonand bo'ylab solsang Keshga yo'l,

Ulkan qoya qalbiga sol bir bor qo'l.[3:304]

"Da Vinchi siri" kitobida bo'lsa bu muhim ishni qurbon Jak Son'er ishoralari va Da Vinchi asarlari bajaradi:

...Fotosuratlarni yuborishgandayoq tushundimki, bu noma menga atalgan.

- O'z tanasi orqali " Vitruvian odami" ni ko'rsatgani uchun shunday xulosaga keldingizmi?

- ...Noma oxiridagi P.S. xarflari shunchaki ishora emas, balki menin ismimi bildiradi.

- Nima? Ismingiz Sofi Nevyo-ku?

- Ha. Son'er bilan birga yashaganimizda esa u meni Malika Sofi chaqirardi. P.S. (Princess Sophi) Malika Sofining qisqartirilgani.[4:88-89]

... Leonardo da vinchi Graal kosasi qayerga qayerga yashirilganini bilardi.

Ehtimol xazina haliyam Britaniyadadir.

Graal kosasini qidiruvchilar da Vinchi asarlari va kundaliklarini sinchiklab o'rganishlari bejizga emas. Ular shu orqali xazina yashirilgan joyni topishga umid qilishadi. [4:191]

“Temuriylar kutubxonasi siri” mutolaasi jarayonida siz beixtiyor qahramonlar bilan birga Rossiya, Armaniston, shuningdek, O'zbekistonnin qator viloyatlariga sayohat qilasiz. Ikkinchi asarda bu sayohat Buyuk Britaniya va Fransiya aro bo'ladi. Aynan voqealarning bir nechta davlatlarda sodir bo'lishi asrlardagi navbatdagi bog'liklikdir.

Endi esa kitoblardagi farqli tomonlarini biroz yoritsak. “Da Vinchi siri” kitobini o'qiy borar ekansiz, qurbon bo'lgan Jak Son'erning zakovatiga qoyil qolasiz. Hatto uning o'sha tarixiy jamiyat Sion - Prioriatining oxirgi yetakchisi bo'lganligi sizni taajjubga soladi. Bu so'zlarni keying asardagi qurbon bo'lgan cho'pon haqida aytolmaymiz. Negaki u o'zi beixtiyor topib olgan olamshumul xazinaning nimaligini bilmaydi. Hatto tangalarning qadimiy ekanligi haqida ham shubhaga bormaydi.

Yana bir oshkor farq shundaki, “Da Vinchi siri” qissasi tarixiy bo'lishi birga diniy qarashlarni ham bafurja yoritgan va shu sabab ha asarda tarixiy diniy atamalar ko'plab uchraydi. Jumladan, Graal kosasi, rosa rugosa, pentakl, Roslin ibodatxonasi Pempl cherkovi va boshqalar.

**Xulosa:** xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki bu ikki bebaho asarlar tahlili, ulardagi qiyosiy nuqtalar hali to'la yakun topmagan. Zero, Den Braun sarida ta'kidlaganidek, “...odamlar sirli narsalarni xush ko'rishadi.” Bu esa ikki kitobni qayta-qayta o'qishga undayveradi. Shu o'rinda yana ta'kidlash lozimki, garchi o'zbek

adabiyotida detektiv janr g'arbdagidek cho'qqisiga yetmagan bo'lsa-da, biz muhokamasini keltirgan asar o'zbek detektiv adabiyotining yorqin namunalaridandir.

**References:**

1. <https://humoscience.com/index.php/itse/article/download/1359/2447>.
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Detektiv\\_adabiyot](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Detektiv_adabiyot).
3. Komil Sindarov. Temuriylar kutubxonasi siri. Yangi asr avlodi – Toshkent 2019. 319
4. Den Braun. Da Vinchi siri. Yangi asr avlodi – Toshkent 2020.415